

SamVMCHBU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar jismoniy madaniyat va sport kafedrasining katta o'qituvchisi A. Xomidovning Jismoniy madaniyat va sport fanidan " 100 metrga yugurishda past startga turish va yugurib chiqish, to'g'ri yo'lakdan yugurish, marraga yetib kelish texnikasini o'rgatish " mavzusidagi ochiq amaliy mashg'uloti ishlanmasiga.

TAQRIZ

Mazkur dars ishlannasi mavzuning aynan maqsadidan kelib chiqqan holda amaldagi malaka talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. Dars ishlanmasida belgilangan mavzu fanning o'quv va ishchi o'quv rejalarida belgilangan soat hajmini to'la qamrab oladi. Dars ishlanmasidagi amaliy mashg'ulot mavzusi mavjud imkoniyatlar asosida tuzilgan.

Berilgan mashg'ulot talabalar tomonidan to'liq bajarilishi katta amaliy ko'nikma va bilimlar shakllanishiga asos bo'ladi. Dars ishlanmasining ahamiyatli jihatlaridan biri amaliy mashg'ulot mavzusidan tashqari bilimlar olishga undaydi Mustaqil ta'limni sifatli amalga oshirishlari uchun kerakli bo'lgan asosiy va qo'shimcha adabiyatlar ham o'rin olgan. Undan tashqari bo'lajak kadrlarni dastur materiallarini amaliy o'zlashtirish, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha ma'naviy- ma'rifiy xislatlarini shakllanishiga, ularni tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishini kuchayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydi, sport-pedagogik bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantiriladi, yuqori malakali mutaxassisga xos xislatlarini shakllantiradi, murabbiylik va tashkilotchilik faoliyatiga ijodiy yondoshishini faollashtiradi.

O'qituvchi A.Xomidovning "100 metrga yugurishda past startga turish va yugurib chiqish, to'g'ri yo'lakdan yugurish, marraga yetib kelish texnikasini o'rgatish " mavzusidagi amaliy mashg'ulotining ishlanmasi hozirgi zamon ta'lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman.

Iqtisodoyot fakulteti 1-kurs talabalari uchun tayyorlangan dars ishlanmasi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishilgan, shuning uchun uni keng miqyosida Universitetning barcha yo'nalishlarida foydalansa bo'ladi deb hisoblayman va tavsiya etaman.

SamVMCHBU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar jismoniy madaniyat va sport kafedrasining katta o'qituvchisi



A.Tuvalov

SamVMCHBU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar jismoniy madaniyat va sport kafedrası o'qituvchisi A. Xomidovning Jismoniy madaniyat va sport fanidan "100 metrğa yugurishda past startğa turish va yugurib chiqish, to'g'ri yo'lakdan yugurish, marraga yetib kelish texnikasini o'rgatish" mavzusidagi ochiq amaliy mashg'uloti ishlanmasiga.

TAQRIZ

Amaliy mashg'ulot ishlanmasi "Jismoniy madaniyat" fanidan namunaviy dastur asosida ishlab chiqilgan ishchi o'quv dasturi (SILLABUS) asosida tayyorlangan bo'lib, tegishli reja asosida yoritilgan. Rejada qo'yilgan savollar uslubiy tomondan tog'ri taqsimlangan, unga zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan;

Amaliy mashg'ulotda dastlab mashg'ulotning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari aniq ko'rsatib berilgan. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasida o'quv mashg'ulotlarning vaqt me'yorlari aniq ko'rsatib berilgan. Talaba amaliy darsi jarayonida yugurishning inson organizmiga nechog'lik ahamiyatli va foydali ekanligini tushunib oladi. Bu mavzu bo'yicha berilgan birqancha rasmlarni ko'rib talabalarda bajarish texnikasi, unga qo'yiladigan talablarni bilib oladi. Ishlanmada nazorat savollari va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati berilgan bo'lib barcha talabalarga javob beradi.

O'qituvchi A.Xomidovning "100 metrğa yugurishda past startğa turish va yugurib chiqish, to'g'ri yo'lakdan yugurish, marraga yetib kelish texnikasini o'rgatish" mavzusidagi amaliy mashg'ulotining ishlanmasi hozirgi zamon ta'lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman.

Iqtisodiyot fakulteti 1-kurs talabalari uchun tayyorlangan dars ishlanmasi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishilgan, shuning uchun uni keng miqyosida universitetning barcha yo'nalishlarida foydalansa bo'ladi deb hisoblayman va tavsiya etaman.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
jismoniy madaniyat kafedrası
mudiri (PhD) dotsent

Z.Abdulaxatov

